



## FARG‘ONA VILOYATI O‘ZBEKISTON TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 26-mart

122-11-161-Q/25

O‘zbekiston tuman hokimligi

### Mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 28, 126-moddalariga va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi va xorijiy mamlakatlar o‘rtasida ikki tomonlama hamkorlik bo‘yicha hukumatlararo komissiyalar (qo‘mitalar, kengashlar va ishchi guruhlar)ning O‘zbekistonga oid qismlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4331-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida hamda tuman hokimi o‘rinbosari J.Akramovning bildirishnomasini inobatga olib

### QAROR QILAMAN

1. Tuman hokimi o‘rinbosari J.Akramovning bildirishnomasi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 maydagi PQ-4331-sonli qarori ijrosini ta‘minlash, jumladan joriy yilning 14-19 mart kunlari Xitoy davlatining Shinjon-Uyg‘ur provinsiyasining Savdo-sanoat palatasi vakallari bilan uchrashuv, yirik kompaniyalar bilan muzokaralar olib borish bo‘yicha yuborilayotgan tuman ishchi guruhining safar xarajatlari bilan bog‘liq xarajatlar uchun tuman mahalliy byudjetining 2025 yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan 30 000 000 (O‘ttiz million) so‘m mablag‘ tuman hokimligiga ajratilsin.

3. O‘zbekiston tuman hokimligi bosh hisobchisi X.Komilovga:

ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va uning belgilangan tartibda Xitoy davlatining Shinjon-Uyg‘ur provinsiyasiga yuborilayotgan tuman ishchi guruhining safar xarajatlari uchun maqsadli yo‘naltirilishini ta‘minlash;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni hamda mablag‘larni ishlatish yakuni bilan shakllanadigan tegishli

hisobotlarni Iqtisodiyot va moliya bo‘limi hamda G‘aznachilik xizmatiga taqdim etilishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Sattorov)ga ajratilgan mablag‘lar doirasida xarajatlar smetasini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish va byudjet xarajatlar rejasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, g‘aznachilik xizmatiga (A.Razzoqov)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish va maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifalari topshirilsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiyasi mazkur qaror bilan ajratilgan mablag‘lar to‘g‘risida hisobotlarni tuman Kengashining navbatdagi sessiyasiga kiritilishini nazoratga olsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish vazifasi tuman hokimi o‘rinbosari A.Imomnazarov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**BEGMATOV  
RAVSHANBEK.BERDALIYEVICH**